



## **KORXONADA AYLANMADAN OLINADIGAN SOLIQ VA UNING MOHIYATI**

**Matrasulov Baxodir**

*Guliston davlat universiteti katta o'qituvchisi*

**Turayeva Gulizahro**

*Guliston Davlat Universiteti o'qituvchisi*

**Mamarayimov Asadbek**

*Guliston Davlat Universiteti talabasi*

***Annotatsiya.** Soliqqa tortish tizimida olib borilayotgan islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri kichik biznes subyektlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish hisoblanadi..Ushbu maqolada kichik biznes subyektlariga qo'llaniladigan aylanmadan olinadigan soliqning iqtisodiy mohiyati, soliqqa tortiladigan baza va soliqni hioblash usuli ko'rib chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:** aylanmadan olinadigan soliq, soliq to'lovchi, soliq bazasi, daromad so'lig'i, mulk solig'i.*

### **Kirish**

Korxonalarda aylanmadan olinadigan soliq, iqtisodiyotimizning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.Aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilar yagona soliq to'lovchisi deb ham ataladi,buning sababi so'liq tolovchi faqat hisobida aylangan pul miqdorining foiz ulushida yagona soliqni to'laydi yani qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'ini to'lamaydi.Ushbu soliq tizimi, korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirish va davlat byudjetiga mablag' yig'ishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi.

**Tahlil va natija.**Qatiy belgilangan aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilar qaysi hisobotlarni topshirmaydi?

-Soliq tolovchilar ixtiyoriy tartibda AOSni qatiy belgilangan summada tolashni tanlashi mumkin. Ushbu stavkalar yiliga quyidagi miqdorlarda belgilandi jami daromadi 500 mln somdan oshmagan soliq tolovchilar uchun yiliga 25 mln som jami daromadi 500 mln somdan oshgan soliq tolovchilar uchun yiliga 34 mln som.Qatiy belgilangan miqdorda AOS tolovchilar ushbu soliq va dividendlar korinishidagi daromadlar boyicha soliq hisobotlarini taqdim etish majburiyatidan ozod qilinadi.Soliq kodeksi 470-prim 1-modda Aylanmadan olinadigan soliqni qatiy belgilangan soliq stavkasi boyicha tolaydigan tadbirkorlik subyektlari yillik moliyaviy hisobotlarni soliq organlariga topshirish majburiyatidan ozod etiladi. PQ-419-son, 10.11.2022-y.



-Ixtiyoriy ravishda umumbelgilangan soliq(QQS va foyda solig'i) to'lashga o'tgan soliq to'lovchi aylanma hajmi kamayganligi sababli AOS to'lashga o'tsa bo'ladimi?

-Soliq kodeksining 462-moddasiga asosan, umumbelgilangan soliqlarni QQS va foyda soligi to'lashga ixtiyoriy ravishda otgan soliq to'lovchilar bosharti joriy soliq davri yakunlari bo'yicha jami daromadlari 1 mlrd somdan oshmagan bolsa, aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga kamida 12 oydan keyin qayta otishga haqli.

Asosiy vosita sotilganda elektron hisobvarag' fakturani rasmiylashtirish tartibi qanday bo'ladi. Asosiy vosita sotilganda aylanmadan soliq solish bazasiga faqat sotishdan olingan daromad qoshiladi, sotish qiymati emas. Aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha soliq solinadigan bazani aniqlashda jami daromad tarkibiga asosiy vositalarni sotishdan olingan daromad foyda kiritiladi. Aylanmadan olinadigan soliqning bazaviy foiz stavkasi 4% etib belgilangan<sup>1</sup>. Bu stavka, O'zbekistonda amal qiluvchi soliq siyosati doirasida, aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilari uchun qo'llaniladi. Shuningdek, hudud va faoliyat turiga qarab, 1%dan 3%gacha bo'lgan pasaytirilgan stavkalar ham mavjud bo'lib, bu kichik biznes subyektlariga qo'shimcha yengilliklar yaratish maqsadida joriy etilgan. Aylanmadan olinadigan soliqning iqtisodiy mohiyati: Aylanmadan olinadigan soliq, korxonaning umumiy aylanmasidan olinadigan, lekin uning daromadiga bog'liq bo'lmagan soliqdir. Bu soliq turi, korxonaning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish va kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida joriy etilgan.

Soliq to'lovchilari: Soliq to'lovchilari, asosan, mikrofirmalar va kichik korxonalar hisoblanadi. Ular, soddalashtirilgan soliq rejimidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lib, bu ularning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.

Soliq solish ob'ekti va soliq bazasi: Soliq solish ob'ekti, korxonaning daromadlari yoki foydasi bo'lishi mumkin, va soliq bazasi bu daromad yoki foydaning ma'lum bir qismidir. Soliq stavkalari esa, soliq solinadigan summani aniqlash uchun qo'llaniladi.

Soliq stavkalari va soliqni hisoblab chiqarish: Soliq stavkalari, turli xil omillarga ko'ra belgilanadi va bu stavkalar korxonaning soliq majburiyatlarini aniq belgilashda muhim rol o'ynaydi. Soliqni hisoblab chiqarish esa, korxonaning moliyaviy hisobotlariga asoslanadi.

Soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi:

Soliqni hisoblab chiqarish, korxonaning moliyaviy hisobotlariga asoslanadi.

Soliq hisobotlarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi, soliq organlarining talablariga muvofiq amalga oshiriladi.



**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda aylanmadan olinadigan soliq, korxonalarining iqtisodiy faoliyatini tartibga solish va davlat byudjetiga mablag' yig'ishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu soliq tizimi, korxonalar uchun aniq va adolatli soliq yuki yaratishga yordam beradi va ularning iqtisodiyotdagi o'rnini va ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek aylanmadan olinadigan soliq hisoblash uchun osonligi va daromadga aloqador bo'lmaganligi sababli soliq to'lovchilar uchun ko'plab qulayliklar tug'diradi va soliq organi uchun ham yengillik yaratadi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar:***

1. A.B.Muxametov. B.Matrasulov.G.Turayeva T.:Buxgalteriya hisobi darslik. Ziyonashr. 2023.-347 b
2. Turayeva, G., Sherxonov, A., Abduhalilov, A., Xusanov, X., & Rahmonqulov, H. (2023). SOLIQLAR VA BOSHQA MAJBURIY TO'LOVLAR TASNIFI, TURLARI HAMDA HISOBGA OLIH VAZIFALARI. *Наука и технология в современном мире*, 2(14), 46-48.
3. Madinabonu, A., Nurjahon, N., & Mehriniso, M. (2023, April). BUXGALTERIYA HISOBINING MILLIY STANDARTI. In " *Conference on Universal Science Research 2023*" (Vol. 1, No. 4, pp. 93-95).
4. Мухаметов, А., Абдувахидов, А., Матрасулов, Б., & Саматкулов, М. (2021). ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ХАРАЖАТЛАРИНИ ТУРКУМЛАШ ВА УЛАРИНИНГ ҲИСОБИ. *Iqtisodiyot va ta'lim*, (5), 351-358.
5. Muxametov, A., Matrasulov, B., Chorshanbiyev, U., & Abduvoxidov, A. (2024). QAYTA IJARAGA OLIH UCHUN ASOSIY VOSITALARNI SOTISH HISOBI. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 2(2), 182-191.
6. Sharipova, S., & Xalimova, F. (2024). ACTUAL PROBLEMS OF TEACHING A LANGUAGE IN THE CLASSROOM AND THEIR SOLUTIONS. *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit*, 133-135. <https://doi.org/10.2024/41yemx68>
7. Рахматуллаева, Ф., & Шаробиддинов, А. (2023). YALPI HUDUDIY MAHSULOT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO 'LLARI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/4), 140-146.
8. qizi To'yeva, M. S. (2022, November). YANGI O 'ZBEKISTON ORIFA AYOLLARI VA G 'ARB AYOLLARINING JAMIYATDAGI MAVQEYI VA ULARNING HUQUQLARI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 74-81).
9. Alavutdinova, N., & Ergasheva, L. (2024). COMMUNICATIVE CHARACTERISTICS OF TEACHING THE UZBEK LANGUAGE AS A FOREIGN LANGUAGE. *Science and innovation*, 3(B1), 29-34.
10. Sharipova, S. (2023). THE ROLE OF COACHING TECHNOLOGY IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING AND ABILITIES OF ADULTS IN LANGUAGE LEARNING PROCESS. *Solution of social problems in management and economy*, 2(13), 5-12.